

XX ASR AQSH REGIONAL ROMANI BADIY O'ZIGA XOSLIGI

O.X.Ganiyeva

F.f.f.d., dotsent

Buxoro davlat universiteti

E-mail: o.x.ganieva@buxdu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14355564>

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr AQSH regional romanlari, janriy ko'rinishlari, epik rivoyada mukammallikka erisha olgan mualliflar asarlarining o'ziga xosligi nazariyotchilar fikrlari misolida tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: roman, epik bayon, nasr, xarakter, obraz, rivoya, AQSH adabiyoti, muallif, romannavis.

Roman epik turning salmoqli janrlaridan sanalib, uning taraqqiyotida AQSH adabiyoti vakillarining ham bevosita xizmatlari beqiyos. XX asr AQSH romannavislari qatoriga F. Skot Fitzjerald, U. Folkner, E. Heminguey kabi zabardast vakillarni sanab o'tish hamda ularning novatorona yondashuvlari sababli Amerika romanining taraqqiyoti bevosita shunday mahorat egalarining xizmatlari tufayli ekanini anglash mushkul emas. Mamlakat romannavislari an'analarga sodiq qolish bilan bir qatorda, rivoya uslubida tajribalar o'tkazish, psixologik tahlil, qahramon ruhiy olamini teran qalamga olish, modernistik syujetga asoslanish, hukmron jamiyat kamchiliklarini tanqid qilish, bid'at va xurofotga oid qarashlardan voz kechish, ramziylikdan unumli foydalanish, har bir insonga individual yondashish hamda antroposentrik yondashuvga urg'u berish, badiiy asar tilida o'ziga xoslik kasb etish, milliy-madaniy qadriyatlar talqinida yakdillikka erisha oldilar.

AQSH realistik romani shakllanishida **mahalliy kolorit yoki regionalizm** adabiyoti muhim o'rin egallaydi. XIX asr so'nggi o'n yilliklarida tamal toshi qo'yilgan bu yo'nalish XX asrda ham muayyan mualliflar romanlarida davom etdi. Mazkur adabiyot vakillari o'zlari mansub hudud tasviri hamda talqinida yangi shakl va mazmunda badiiy asarlar yaratishdi. XIX asr so'ngidagi H. Garlend, B. Gart, S. O. Jyuet, K. Shopin singari mualliflar shahar sanoat markazlaridan uzoqda bo'lgan qishloq joylar hayotini realistik tasvirlab, bu hududlarga xos sheva, xalq og'zaki ijodi, madaniyatini saqlab qola olgan, qayta gavdalandirgan nasriy asarlar yaratishdi.

XX asr regional romanchiligi qator zabardast yozuvchilar hissasi evaziga yuksalishga erishdi. U. Keser (Willa Cather) "O Pioneers!", "The Song of the Lark", "My Antonia" va "One of Ours" kabi romanlarida Nebraska shtatida istiqomat qiluvchi fermerlar hayotiga teran nazar tashlaydi. Yozuvchi qishloq xalqi hayotini turli ranglarda batafsil aks ettirib, fermerlar, dehqonlar va migrantlarning og'ir hayotiga chuqur kirib boradi. U. Keser mahalliy tasvir va qahramonlar ichki olami in'ikosini birlashtirib, universal mavzularning badiiy ifodasini keltiradi. Romanlarda umid, umidsizlik, murakkab ijtimoiy sharoitda insoniylikka sodiq qolish, madaniy mansublik mavzularini keng yoritadi. Nosir regional talqin yordamida hukmron jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy evrilishlarini yorqin namoyon etadi.

XX asrning regionalistik romanlari postmodernistik kosmopolit madaniyat bilan uyg'unlashib, yangi jonlanishni boshdan kechirdi, bu tendensiyalar garmoniyasi mahalliy madaniyat hamda muayyan muhitga xos ijtimoiy spesifik jihatlarni yoritib berilishiga xizmat qildi.

"Norms are values (moral and social) and standards of behaviour. One of Booth's norms in "The Rhetoric of Fiction", for example, is that novels should communicate their moral positions clearly" [5; 59]. U. K. But (Wayne C.Booth) AQSH romanchiligi borasida izchil tadqiqotchilardan biri sanalib, adabiyotshunos roman hamda muallifning asar yaratishda rioya qilishi lozim bo'lgan qator prinsiplarni izohlab beradi. Munaqqid "The Rhetoric of Fiction" asarida romannavislikning nazariy asoslarini ochib berish bilan bir qatorda, romannavislar uchun tavsiyalar ham berib o'tadi. Uning fikricha, haqiqiy roman realistik bo'lishi lozim, aynan badiiy soflik roman poetikasida eng muhim element sanaladi. Rivoyada realistik ifodaga erishish, asar-muallif-kitobxon triosida mushtarak mezonlar, romanning bevosita reallikni istifoda etishi, har bir muallif obyektivlikni lozim tutishi, neytrallikga erisha olgan yozuvchi badiiy ifodada maqsadga erisha olishi, rivoyachi, roviyning nasrda roli va o'rni, nasrda muallifning 'ovoz'i singari qator nazariy masalalar keng tahlil qilinadi. U. K. But XX asrning "A Portrait of the Artist", "Aspern Papers", "Emma" singari salmoqli romanlari misolida fikrlarini batafsil izohlaydi.

U. K. But romanda yozuvchining mezon borasida muayyan qoidalarini ta'kidlab, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar hamda hatti-harakatlar ifodasi, bu normativ me'yorlar talqinida har qanday muallif o'zining aniq axloqiy pozitsiyasini namoyon qilishi lozimligini qayd etadi. Bunday vaziyatda romannavis bevosita kitobxon bilan axloqiy normalar haqida muloqot qilish imkoniyatiga erishib, nafaqat rivoya qilish, balki ijtimoiy hamda axloqiy masalalar muhokamasi orqali reseptorga ta'sir qila olish imkoniyatini qo'lga kiritadi. U. K. Butning nazdida, aniq axloqiy pozitsiyaga ega bo'lmagan romanlar o'zining ta'sirdorligini saqlab qola olmasligi mumkin [2; 212]. H. Li (Harper Lee) "To Kill a Mockingbird", J. Steynbek "The Grapes of Wrath", R. Ellison "Invisible Man", T. Morrison "Beloved" singari romanlar yuqorida ta'kidlangan fikrlarda keltirilganidek, badiiy asarning axloqiy-estetik maqsadini aniq ifodalab, kitobxonni ijtimoiy hamda axloqiy masalalar ustida chuqurroq mushohada qilishga majburlaydi.

XX asr AQSH regionalistlari ham faqat mahalliy tasvirga emas, jamiyatda mavjud axloqiy, ijtimoiy masalalarga ham teran nigoh tashladilar. XX asr regional tasvir an'analari modern elementlar bilan uyg'un namoyon etgan romanlar Sh. Anderson (Sherwood Anderson), E. Heminuey (Ernest Hemingway), J. Steynbek (John Steinbeck), U. Folkner (William Faulkner), R. Rayt (Richard Wright) singari zabardast mualliflar qalamiga mansub bo'lgani kuzatiladi. "The Revolt from the Village" (Carl Van Doren), "Main Street" (Sinclair Lewis), "Spoon River Anthology" (Edgar Lee Masters) kabi romanlar XIX asrda hukmron regional tendensiyalardan ancha chekinib, novatorona rakurs namoyon etdi. Yozuvchilar mahalliy tasvir orqali jamiyatda etnik guruhlar muammosi, irq, sinf bilan bog'liq marginalizatsiyaga uchragan kishilar masalasi, ularning psixo-emotsional tanazzuli, ijtimoiy tengsizlik oqibatida diskriminatsiya singari qator mavzularni yoritdilar.

Xulosa qilib aytganda, XX asr realistik adabiyoti takomilida regional romanchiligi rivojlanishi ham asosiy faktorlardan biriga aylanib, novatorona rakurs orqali ijtimoiy illatlarni yoritishdi.

References:

1. Barrish, P. J. The Cambridge Introduction to American Literary Realism. – USA: Cambridge University Press, 2011. – P.241.

2. Booth, W.C. Rhetoric of Fiction. – USA: The University of Chicago Press, 1983. - P. 574.
3. Brown, H.R. The Great American Novel. // American Literature, 1935, Vol.37, No.1. // P. 1-14.
4. A Companion to the Modern American Novel. 1900-1950. Ed. by John T. Matthews. – UK: Wiley-Blackwell, 2009. P.617.
5. David Madden. A Primer of the Novel. For Readers and Writers. – The USA: The Scarecrow Press, 2006. – P. 276.
6. Rawlings P. American Theorists of the Novel. – NY.: Routledge, 2006. – P. 171.